

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.

Andijon Davlat Pedagogika Instituti magistranti

Zuxriddinova Nilufar Nursaid qizi

Annotatsiya: bo'lajak o'qituvchilarning bilimlarini oshirishga qaratilgan xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish, pedagogik mahoratni oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodlar bilan tanishish. Xalqaro baholash tizimi bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan tashabbusli loyihalar haqida maqolada so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, xalqaro baholash tizimi, PISA.

Аннотация: изучение и внедрение в практику международного опыта, направленного на повышение знаний будущих педагогов, знакомство с современными методиками, направленными на повышение педагогического мастерства. В статье речь пойдет об инициативных проектах, проводимых в нашей стране по международной системе оценки.

Ключевые слова: современные технологии, международная система оценки, Пиза.

Annotation: to learn and practice international experiences aimed at improving the knowledge of future teachers, to get acquainted with modern methods aimed at improving pedagogical skills. The article will talk about the initiative projects carried out in our country on the International Assessment System.

Keywords: modern technology, International Assessment System, PISA.

Hozirgi davrda ilm-fan va texnika izchillik bilan rivojlanib bormoqda, afsuski ba'zi holatlarda bo'lajak o'qituvchilarni yetishtirib chiqaruvchi ko'plab muassasalarda ham ko'zga ko'rinarli bir qancha kamchiliklar mavjud ekanligining guvohi bo'lmoqdamiz. Pedagog avvalo o'qituvchi va tarbiyachi hamdir. Ba'zi www.pedaqoqlar.uz

17-to'plam aprel 2023

holatlarda shu tarbiyachilarimizning mahorati va dars o'tish uslubi ta'lim sifatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Oliy ta'lim bitiruvchilari o'zlarini pedagog sifatida shakllantirishlari uchun o'z ustlarida ko'p ishlashlari kerak. Bu sohada ularga ta'lim berayotgan ustozlarning roli nihoyatda katta. Shu davrga kelib biz uchun katta imkoniyatlar yaratilganki, qaysiki ta'lim muassasada moddiy-texnik bazasi tomonidan duch kelinayotgan muammolar zudlik bilan hal etilmoqda. O'qish jarayonlaridagi moddiy-texnik bazalarning yetishmasligi biz uchun hech qanday bahona bo'la olmaydi, sababi bundan ming yillar ilgari ham ko'plab ajdodlarimiz misli ko'rilmagan yutuqlarga erishganlarida ularda zamonaviy texnikalae bo'lmagan. Avvalo o'zgarishni o'zimizdan boshlashimiz kerak. Ta'lim olish jarayonlarini yaxshilash va kelajakda ta'lim beruvchi sifatida qanday jihatlarga e'tibor qaratishimiz kerak ekanligini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda bo'lajak pedagoglarning sifatli ta'lim olishlari uchun pedagogika instituti talabalarida 4+2 amaliyoti joriy etilgan. Bu amaliyot nazariya va amaliyotning uyg'unligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-289-qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida taxsil olayotgan 2-4-bosqich talabarlari uchun haftalik "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan edi. Asosiy maqsad talabalarda kelajakda egallanadigan kasblari bo'yicha ko'proq tushunchaga ega bo'lish hamda, dars jarayonlarini kuzatish orqali tajribali ustozlardan kerakli bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlash.[3] O'tkazilayotgan tajribalar shuni ko'rsatadiki dars jarayonlarida muntazam qatnashayotgan va amaliyotda o'z

bilimlarini ko'rsatib berayotgan talabalar darslarni sifatli tashkil etishda birmuncha yutuqlarga erishmoqdalar. Dars jarayonlarini kuzatish orqali tajribalar orttirmoqdalar. Barchamizga ma'lumki hozrgi jamiyat o'qituvchilardan tinimsiz rivojlanish va zamon talablariga moslashib borishni talab etmoqda. Hozirgi zamon talablari o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashini, yuqori malaka hamda doimiy kasbiy rivojlanishni talab etadi. Atrofingizda raqobatdosh pedagoglar ko'paygan sari siz o'z ustingizda ko'proq ishlash kerak ekanligini tushunib yetasiz. Bunda sizga zamonaviy metodikalar, interfaol dars o'tish usullari, xorijiy tajribalar va malakali ustozlarning ko'magi zarur albatta. Dars o'tishning eskicha uslublaridan allaqachon voz kechilgan va zamonaviy bilimlarni xatto yoshi katta ustozlar ham egallashga harakat qilmoqdalar. Zamonaviy metodlar orqali dars jarayonlari tashkil etilgan samaradorlikka erishish allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlashning chora tadbirlari ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash; xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish; o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlaridan etib belgilandi. [1]

PISA – o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

PISA - xalqaro baholash dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumot to'playdi va o'quvchilarda muammoni hal

qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi yoshlarning fikr munosabatlari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.[4]

PISA – dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida xalqaro baholash dasturlarini o'tkazishga asoslanib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga e'tibor qaratadi.

PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi. Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi va mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof etadilar.

PISA tadqiqoti (Programme for International Student Assessment) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTT (OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

Tadqiqot ilk bor 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba o'tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2022 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan.[5]

PISA tadqiqoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;

- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etadilar;

- tadqiqotda o'quvchilarning “hayotga tayyorlik” darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

- tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo'nalishdagi va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;

– tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi.

– O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi quyidagilarga imkon yaratib beradi:

– O'zbekiston umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash;

– mamlakatdagi umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash; [2]

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va yangiliklar ta'lim sohasining tubdan rivojlanishiga va bo'lajak o'qituvchilarning mahoratli kasb egalari bo'lib yetishishlarida muhimdir. Har bir pedagog o'z vazifasini to'g'ri anglashi va kelajakdagi egallaydigan kasbi uchun yetarli bilimga ega bo'lishi jamiyatning rivojlanishidagi ustuvor vazifadir. Hozirda har birimiz oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimizga harakat qilishimiz va yurtimiz oldidagi burchimizni ado etishga vijdonan kirishishimiz zarur.

Foydalanish tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. A. Ismailov va b. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash (Kimyo, biologiya, fizika, geografiya fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019-yil.

2. A. A. Ismailov va b. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnomalar (Matematika fani, tabiiy yo'nalishidagi fanlar, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo'ljallangan axborotnoma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2020-yil

3. A. B. Radjiev va boshq. O'quvchilarning savodxonligining baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Qo'llanma. Toshkent, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi -2019.

4. <http://www.markaz.tdi.uz> – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti

5. @milliymarkaz_aloqabot – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi telegram boti.

6. Кахарова, Н. Н. Дидактический материал как средство повышения познавательной деятельности учащихся на уроках русского языка / Н. Н. Кахарова // *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации: сборник статей LXIII Международной научно-практической конференции, Пенза, 15 февраля 2023 года.* – Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2023. – С. 170-172. – EDN FLGUQW